IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA OID UNIVERSAL XALQARO-HUQUQIY HUJJATLAR

Abduaxatov Shaxrux Zokir o`g`li

Annotatsiya

Xalqaro ekologik huquq sub'eklari o'rtasidagialoqlarva xalqaro atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro huquq normalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan munisabatlar. Atrof muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro, mintaqaviy va mahalliy normalar, boshqa davlatlar huquni qo'llashda aynan ushbu o'rganilayotgan sohadagi amaliyoti. Xalqaro ekologik konvensiyalarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayonini o'rganishda umumiy ilmiy, maxsus va xususiy ilmiy metodlardan foydalanildi. Atrof muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro huqu normalarining implementatsiya qilish jarayonida qiyosiy-huquqiy metodi bo'yicha tranchigaraviy ifloslanish bo'yicha davlatlarning urf-odatlari, xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlarning hujjatlari va ularning ichki qonunlari tahlil qilindi.

Kalit so`zlar

Universal xalqara shartnoma, atmosfera havosining ifloslanishi, ozon qatlamini himoya qilish, yerning atmosferasi butun insoniyatning mulki.

Atrof-muhitni himoya qilish sohasi bo'yicha xalqaro miqyosdagi hujjatlar ikki asosiy katta guruhga ya'ni, universal va mintaqaviy konvensiyalarga bo'lishimiz mumkin. Universal xalqara shartnoma va konvensiyalar ham bir necha turlarga bo'linadi:

- Atmosfera havosiga oid;
- Zararli moddalarga oid;
- Dengizni himoya qilishga oid;
- Tabiyatni va undagi jonzodlarni asrashga oid;
- Atom xavfsizligiga oid.

Yuqoridagi keltirilgan turlar bo'yicha alohida xalqaro miqyosdagi shartnomalar va konvensiyalar imzolangan. Jumladan, "Iqlim o'zgarishi bo'yicha BMTning konvensiyasi" (1992-yil), "Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi" (1992), "Uzoq masofaga havo ifloslanishi" (Jeniva 1972) kabi atmosfera havosini asrash bo'yicha konvensiyalar global miqyosda atrof-muhit himoyasiga doirdir. Zararli moddalar bo'yicha xalqaro hujjatlarga "Zararli moddalarni chegaradan olib o'tishni nazorat qilish bo'yicha Bazel konvensiyasi" (1989), "Zararli kimyoviy moddalarni xalqar oldi-sotdisi bo'yicha Rotterdam konvensiyasi" (1998), "Zararli organik moddalar bo'yicha Stotgolim konvensiyasi" (2001) kiradi. Dengiz suvini himoya qilishga oid konvensiyalar asosan dengizda tashiladigan neft va boshqa moddalarning dengiz suviga to'kilishini va ularning xavfsiz tashilishi tanimlashga oid London kelishuvlaridan ibora. Tabiyatni va undagi jonzodlarni asrashga oid konvensiyalrga quydagilar kiradi: "Biyologik xilma-xillik saqlash bo'yicha konvensiya" (1992-Rio de Janera), "Migratsiya qiladigan va yovvoyi jonzotlarni asrash bo'yicha konvensiya" (1979. Bonn), xavf ostidagi va kam sonli Flora va faunaning oldi-sotdisi bo'yicha konvensiya" (Vashington 1973.), "Yerlarni cho'lga aylanish bo'yicha Parij konvensiyasi" (1994). Bundan tashqari

“Shovqindan himoyalanish va atom enirgiyasidan xavfsiz yo’llar bilan foydalanish to’g’risidagi konvensiyalar ham xalqaro ekologik huquqning universal hujjatlaridan hisoblanadi.

Ushbu xalqaro hujjatlardan ko’pchiligiga O’zbekiston Respublikasi a’zo bo’lgan va ularni hozir ba’zi birlarini ko’rib chiqamiz.

Atmosferani himoza qilish bo’yicha universal xalqaro huquqiy hujjatlar. Yerning atmosferasi butun insoniyatning mulki bo’lgan global tabiiy resurs sifatida qaraladi va shartnomalar atrof-muhitga salbiy ta’sir ko’rsatadigan antropogen faoliyatni cheklash maqsadida, jumladan havo ifloslanishi, kislota yomg’iri, ozon qatlamining kamayishi, iqlimning global isishini kamaytirishni ko’zlaydi

Bu erda asosiy hujjatlardan biri 1979-yilda qabul qilingan“Uzoq masofalardagi transchegaraviy havo ifloslanishi to’g’risida”gi Konventsiya. Konvensiya doirasida ishtirokchi davlatlar transchegaraviy havo ifloslanishini cheklash va kamaytirish, axborot almashish, yuzaga keladigan muammolar yuzasidan maslahat berish va havo sifati monitoringini o’tkazish majburiyatini oladilar. 1984-yilda tomonlar Qo’shma dasturni moliyalashtirish bo’yicha Jeneva protokolini qabul qilishdi (EMEP); 1985-yilda — 30% ga oltingugurt emissiyasini kamaytirish bo’yicha Xelsinki protokoli; 1988-yilda Sofiyada azot oksidlarining uchuvchan emissiyasiga qarshi protokol; 1991-yilda Jenevada uchuvchi organik birikmalar to’g’risidagi protokol; 1994-yilda Osloda oltingugurt emissiyasini yanada qisqartirish protokolilari ushbu konvensiya doirasida qabul qilingan.

Yer yuzasining ozon qatlamini himoya qilish uchun 1985-yilda ozon qatlamini himoya qilish bo’yicha konvensiyasi qabul qilindi. Konventsiyada ozon qatlamining holati to’g’risida muntazam kuzatish, tadqiqot va axborot almashish bo’yicha tomonlarning majburiyatlari belgilab qo’yildi. 1987-yilda ozon qatlamini buzadigan moddalar bo’yicha Monreal protokoli qabul qilindi. Protokol xloroflorokarbon ishlab chiqarish va ulardan foydalanishga katta cheklovlar qo’ydi. Protokolga yana ikkita o’zgartirish 1990-yilda Londonda va 1992-yilda Kopengagenda qabul qilindi. Monreal protokoli tomonidan ko’zda tutilmagan issiqxona gazlari iqlim o’zgarishi bo’yicha asosiy konventsiyani yanda aniqroq va ochiqroq ishlashga yo’l ochib berdi.

Dengiz muhitini ifloslanishdan himoya qilish bo’yicha juda ko’plab xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud: 1982-yilgi BMT dengiz huquqi to’g’risidagi Konvensiyasi; 1972-yilgi chiqindilar va boshqa materiallar bilan dengiz ifloslanishining oldini olish bo’yicha London konventsiyasi; 1973/78-yillardagi kemalardan dengiz ifloslanishining oldini olish bo’yicha London konventsiyasi shu jumladandir. Ushbu hujjatlar dengizning kemalardan chiqadigan chiqindilar sababli ifloslanishini taqiqlaydi. Konventsiyalar deyarli barcha turdagi dengiz kemalari, shuningdek, statsionar va suzuvchi platformalar uchun amal qiladi.

Kema qatnovining jadallashuvi, dengiz tubidan foydali qazilmalarni olish, dengizlarga sanoat va maishiy chiqitlarni tashlash va ko’mishdan foydalanish Jahon ummonining ko’plab mintaqalarida dengiz muhitining jiddiy ifloslanishiga olib keladi. Davlatlar dengiz muhitiga etkazilayotgan zararnibartaraf etish va kelgusida bunga yo’l qo’ymaslik uchun shoshilinch choralar ko’rish zarurligini his qiladi. Xalqaro huquq bunday vazifani bajarish uchun samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

Dengiz muhitini himoya qilish buyicha davlatlarning birgalikdagi harakati qoida tariqasida universal (amalda barcha manfaatdor davlatlar ishtiroki bilan) yoki mintaqaviy (aniq dengizlar — Boltiq, O'rta er va boshqa dengizlar buyi davlatlarning ishtiroki bilan) darajalarda amalga oshirildi. Bunda xalqaro hamkorlik rivojlanishi asosan dengizlarning kema qatnovi oqibatida va quruqlikdagi manbalardan chiqindilarni chiqarib tashlash tufayli, dengiz osti va uning tubi imkoniyatlarini tadqiq qilish va foydalanish natijasida ifloslanishining oldini olish ko'zda tutiladi.

Yuqorida qayt etib o'tilganidek, dengiz muhitini muhofaza qilishga qaratilgan ko'plab xalqaro hujjatlar orasida 1954-yildagi dengizlarni neft bilan ifloslanishining oldini olish to'g'risidagi London Konvenstiyasi (1962, 1969 va 1971-yillardagi tuzatishlar bilan), 1973-yildagi kemalardan dengizlar ifloslanishinning oldini olish bo'yicha xalqaro Konvenstiya, 1972-yildagi chiqitlar va boshqa materiallar bilan dengizlar ifloslanishining oldini olish bo'yicha Konvenstiya singari ko'p tomonlama xalqaro bitimlar markaziy o'rinni egallaydi.

1954-yilgi London Konvenstiyasi (1958-yili kuchga kirgan) davlatlarning zimmasiga dengiz muhitining ifloslanishini oldini olish bo'yicha muayyan majburiyatlar yuklovchi dastlabki xalqaro bitim bo'lgan edi. Konvenstiya kemalardan neft va neft suv aralashmasini to'kishni taqiqlaydi. Dastlab to'kish uchun taqiqlanmagan maxsus zonalar belgilangandi, lekin keyinchalik (1969 yilgi tuzatishga muvofiq) juda oz darajadagi istisnoni hisobga olmaganda, jahon ummonining butun akvatoriyasida bunday to'kish taqiqlab kuyildi. Konvenstiya, shuningdek ishtirokchi davlatlar zimmasiga portlarda kemalar va tankerlardan neft qoldiqlari va aralashmalarini qabul qilib oluvchi qurilmalar barpo etish choralarini ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Kemalardan dengizlarning ifloslanishi oldini olishga qaratilgan 1973-yilgi Konvenstiya (hali kuchga kirmagan) dengiz muhitini kemalardan dengizga chiqarilib tashlanuvchi har qanday moddalar: neft, zaharli suyuq moddalar, oqava suvlar va axlat bilan ifloslanishining barcha turlariga chek quyish zaruriyatidan kelib chiqadi, uning qoidalari amalda barcha turdagi dengiz kemalariga, shu jumladan havo "yostig'i" bo'lgan kemalar, suvosti kemalari, doim bir joyda turuvchi va suzib yuruvchi kichik stanstiyalarga taalluqli bo'ladi.

XULOSA

Atrof-muhofaza qiluvchi milliy qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "Ekologiya Kodeksini" qabul qilishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Mazkur kodeksni qabul qilish ushbu sohadagi Konvensiyalarning va atrof-muhitni muhofaza qilivchi normalarning samarali qo'llanilishini taminlagan bo'lar edi. Avvalambor, ushbu kodeks ekologiya huquqini fan sifatida rivojlantirishga yordam beradi Bundan tashqari, ekologik normalarning kodefikatsiya qilish davlatning ekalogik siyosatini va ekalogiya va atrof-muhitni muhifaza qilish davlat qo'mitasi vakolatlarini aniq belgilab olishga yordam beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini ravnaqini ta'minlash uchun ekologik sug'irta bozorini rivojlantirishni tavsiya etamiz va shu yo'nalish bo'yicha "Sug'irta to'g'risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvafiqdir. Ushbu qonunlarga o'zgartirish kiritish MDHning ekologik sug'irta to'g'risidagi model qonunini implementatsiya qilish yordamida malga oshirishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan asoslarga tayangan holda O'zbekiston Respublikasida ham xuddi shunday qonunlarni qabul qilishimiz kerakligini hozirgi zamonning o'zi taqazzo etmoqda. Bu islohotlar atrof-muhitni muhofaza qiluvchi normalarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi qilishda har tomonlama rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Рамочная конвенция ООН о изменении климата (Нью-Йорк, 9 мая, 1992 г.) http://lex.uz/docs/2598545

2) Конвенция ООН о биологическом разнообразии (Рио-де-Жанейро, 5 июня 1992 г.) http://lex.uz/docs/2667242

3) Конвенция ООН по борьбе с опустыниванием (Париж, 17 июня, 1994 г.) http://www.lex.uz/docs/2615710

4) Венская конвенция об охране озонового слоя (Австрия, 22 марта 1985 г.) http://lex.uz/ru/docs/2597146

5) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son.

6) "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi, 07.02.2019 y., 03/19/518/2589-son.

7) "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 978-modda;

8) "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 24-son, 487-modda;

WORDLY KNOWLEDGE